



**KASBIY MAHORATINI OSHIRISHDA MOTIVATSIYALARNING O'RNINI VA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAMARALI NATIJASI**

Guliston Davlat Universiteti

Amaliy san'at va dizayn kafedrasini mudiri.

PhD dotsent v.b. Berikbayev Alisher Alikulovich

berikbaevalisher@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-6274-4714>

70-23 guruh talabasi Axmedova Mahliyo

Abdukarim qiz

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15227234>

Annatosiya: Ushbu maqolada kasbiy mahoratni oshirishda o'qituvchi innovasiya faoliyatiga tayyor bo'lishi, eng so'nggi yangiliklarni olib kirib, o'quvchiga motivasiya berib, qiziqarli va uni ehtiyojiga mos ravishda tashkil etishi orqali, inovasiyaon muhit orqali sifat va samaradorlik masalalari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy mahorat, motiv, innovasiya, novasiya, fan, kompetensiya, sintez, ijodkorlik, kreativlik, loyihalash, konstruksiyalash.

Bugungi kunda ta'lim jarayonidagi islohotlar, o'zgarishlar samarasi o'qituvchi shaxsining innovasion faoliyatiga shayligi va layoqati bilan o'lchanmoqda. Ta'lim vositalari va usullarini to'g'ri tanlash va qo'llay olish ishlar sifat va samaradorligini ta'minlabgina qolmay, o'qituvchini yuksak professionallik va mahoratga etaklaydigan omil bo'lib qoldi. Chunki sifat va samaradorlikni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarisiz ta'minlab bo'lmaydi.[2]

Zamonaviy ta'lim modellari o'quvchini ijodkorlikka da'vat etadigan jarayon bo'lib, ularning maqsadi - o'quvchilar faolligi va mustaqilligini ta'minlash sanaladi. Qator ilmiy tadqiqotlarda o'quvchilar faolligi va mustaqilligi muammosi keng o'rganilgan. Innovasiyalar odatda bir necha muammo kesishgan paytda vujudga keladi va pedagogik jarayonning uzluksiz yangilanib borishga xizmat qiladi. "Yangiliklarni joriy qilish" tushunchasi bizningcha, ham yangilik, ham ana shu yangilikni amaliyotga joriy etish jarayonidir. Yangilik - bu alohida olingan shaxs uchun yangi bo'lgan g'oyadir, bu g'oya ob'ektiv ravishda yangi yoki yangi emasligi ahamiyat kasb etmaydi, biz uni vaqt bo'yicha - yangilik ochilgan payt yoki undan birinchi marta foydalanilgan paytda aniqlaymiz. Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovasiya bo'la olmaydi. Shu sababli "novasiya" va "innovasiya" tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lamini asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarni o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holdi biz novasiya bilan muloqot qilayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsiplar o'zgarishiga olib kelsagina innovasiya deya olamiz. Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagilar: innovasiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladigan, ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovasiya esa tizimli, yaxshi va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot sub'ektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo'nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi. Innovasiyaning amaliyotga kiritilishi innovasion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovasion jarayon - bu pedagogik yangiliklar, bu yangiliklarning pedagogik hamjamiyat tomonidan o'zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanishning o'zgarib boruvchi yaxlitligidir. Ta'lim jarayonidagi innovasion o'zgarishlar, ta'lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha o'rganilgan. Innovasion faoliyat - bu uzluksiz ravishda yangi kompetensiyalar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi.



Shundan kelib chiqib quyidagilarni innovasion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin: ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash; mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati; tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish; o'zidan boshqa tadqiqotchi pedagoglar tajribalarini qo'llay olish; hamkasblar bilan hamkorlik; fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik; ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish; yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish. Innovasion faoliyat davrida yangiliklar, innovasiyalar, tom ma'noda ta'lim jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta'lim tizimidagi innovasiyalarni pedagogik jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoli ta'lim tizimini loyihalash.
2. Mo'ljallangan ta'lim tizimini loyihalash.
3. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

Innovasion faoliyatga tayyorlashdan maqsad o'qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.[5]

Shu o'rinda kasbiy ko'nikma va malaka, eng avvalo, har bir pedagog xodimning o'zi tomonidan oshirib boriladi. Jamiyat taraqqiyoti uchun munosib xizmat qila oladigan kadrlar masalasi ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, yosh kadrlarning ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasi muhim ahamiyatga ega. Pedagogik – psixologik adabiyotlarda motivatsiya tushunchasi “harakat qilishga undovchi sabablar” sifatida ta'riflanadi. Ular kishining shaxsiy ehtiyojlariga bog'liq bo'lib, mazkur ehtiyojlarning qondirilmasligi keskinlik holatiga olib keladi va tezkor yechimni talab qiladi. [4]

Motivatsiya o'rganish uchun asosiy shart-sharoit hisoblanadi. Chunki, o'qish jarayonida o'rganishga nisbatan qarama-qarshiliklar kelib chiqadi. O'qishga bo'lgan motivatsiya o'rganish sifati va miqdoriga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil hisoblanadi. U motivning mavjudligi va shaxsiy erishish uchun o'z energiyasini safarbar qilishni ko'zda tutadi.[1]

O'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshiruvchi motivlar o'qituvchining individual shaxsiy psixologik dunyoqarashidan kelib chiqib, uning ichki ehtiyojlariga bog'liq bo'ladigan holda nomayon bo'ladi. Ko'p hollarda kasbiy mahoratni oshiruvchi motivlar o'zini ustida ishlash va obro'ga ega bo'lishlik, ya'ni mustaqil irodasi bilan obro' orttirish o'quvchanligidir. O'z ustida ishlash, o'rganish jarayonida kognetiv, psixomotorik va affektiv o'rganish sohalari farqlanadi. Kognetiv sohaga qarashli bilimlarni “Blum taksanomiyasi” orqali qo'yidagicha ifodalash mumkin:[3]

1. Bilish jarayoni, shaxs biror mavzu haqida bilimlar (dalil va prinsiplar)ni egallaydi va shuni eslab qoladi; (Bu jarayonda ijodiy kreativ pozitsiyalarni loyihalash va konstruksiyalashni nazarda tutish mumkin.)

2. Tushunish jarayoni, shaxs mavzuning o'zaro aloqadorligini tushunadi va shuni har xil vaziyatlarda ta'riflashi mumkin; (Yaratilgan ijodiy ish va kompozitsiyani muhitga moslab tariflaydi.)

3. Qo'llash jarayoni, shaxs bilimlarini amaliyotda qo'llashi mumkin; (Yaratilgan model yoki g'oyani isbotlash talab etiladi.)

4. Tahlil jarayoni, bilimlarni alohida mavzularga bo'lishi va tegishli maqsadda qo'llashi mumkin; (Kelajak avlodga innovatsiyon g'yani foydali jihatlari tariflanib, isbotlanadi.)

5. Sintez jarayoni, shaxs bir mavzuni nafaqat boshqa mavzular bilan, balki bilimlarning boshqa sohalari bilan ham bog'lay oladi; (butun jamiyat uchun xizmat qilishini ta'minlashi kerak.)

6. Baholash jarayonida shaxs o'zi uchun baholash instrumentlarini yaratishi va baholash mezonlarini qo'llashi mumkin; (Sinovdan mofaqqiyatli o'tib, keying bosqichga yo'naltiriladi.)

Amaliyot shuni ko'rsatadiki o'qituvchining muvaffaqiyatiga dastlabki 3 ta vaziyat ham ta'sir qiladi. Bular:

1. Xatti – harakatlarga reaksiya. Biror harakat bajarilishining murakkabligi;



2. O'rganishga ishtiyoq. Aniq tasavvur qilingan o'quv maqsadlariga erishishga intilishi;

3. Tashqi turtkilar. Qiziqishi bo'lmagan o'qituvchida o'qishga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otish maqsadida boshqa bir shaxs turtki beradi;

Bundan tashqari o'qituvchini izlanishiga undovchi motivlari har xil omillar asosida vujudga kelishi mumkin:

- Taqlid orqali o'rganish;
- Odat tufayli;
- Muvaffaqiyat tufayli;
- Urinish, xato va yutuqlar tufayli;
- Anglash, tushunib yetish orqali.

O'qituvchi ta'limiy faoliyatida motivatsiya berishda ongli ravishda o'rganishning turli usullaridan foydalanishi mumkin. Bu yerda Blum taksanomiyasiga anglash, tushunib yetish orqali o'rganish usuliga ko'proq e'tiborini qaratishi kerakligi alohida ko'rsatiladi, chunki u o'zining uzoq ta'siri bilan ajralib turadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, Innovasiyalar doimiy ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklar olib kirish orqali ta'lim rivojiga hissa qo'shadi, pedagogik faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yosh avlodni ta'lim-tarbiya berishdek muhim oliyjanob vazifalarni bajarayotgan, ijodiy faoliyati bugungi kun talab darajasiga javob beradigan o'qituvchining qobiliyati, xususiyatlari, xislatlari, fazilatlarini hamda mahoratning amaliy ishda, pedagogika sohasida tajriba orttirish jarayonida tarkib toptirishda motivatsiya yetakchi rol o'ynaydi. Shu bilan birga o'qituvchi o'z malakasini oshirish, o'z kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini doimiy ravishda oshirishga erishmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziev E. Umumiy psixologiya (1-kitob) (darslik) Toshkent-2002
2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari -T., 2004
3. A.A.Berikbayev Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Toshkent 2024 y
4. Alikulovich, Berikbayev Alisher. "BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI." *Science and innovation* 3.Special Issue 16 (2024): 383-385.
5. Alikulovich, Berikbaev Alisher. "Development of Professional Competence of the Pedagogue through Visual Means." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 1 (2023): 438-442.
6. Olimjon o'g'li, Hamidov Dilshod. "MUHANJENERLIK GRAFIKASINI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARINI TAKMONLASH". *INTELLEKTUAL TA'LIM TEXNOLOGIK YECHIMLARI VA INNOVATSION DIGITAL VOSITALARI* 3.33 (2025): 68-70.
7. Rustambek o'g'li, Xudoyberdiyev Dostonbek. "IJODLIK JARAYONINI TAHLIL OLISH UCHUN NEYR TARMOQLARDAN FOYDALANISH". *INTELLEKTUAL TA'LIM TEXNOLOGIK YECHIMLARI VA INNOVATSION RAQAMLI ASOBOTLAR* 3.33 (2025): 63-67.